




## ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



### THE ROLE OF UZBEKISTAN IN REGIONAL DEVELOPMENT IN THE CENTRAL ASIA REGION

*Shukhrat Abdulazizovich Haydaraliev*

associate professor  
Namangan State University  
Namangan, Uzbekistan

#### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Central Asia, pragmatic policy, foreign policy, regional cooperation, internal policy, democratic society, Great Silk Road, Trade, economic, investment, cooperation, development, development, international experts, stability, security, development, Action strategy, friendship, neighborliness, national interests.

**Received:** 10.09.24

**Accepted:** 12.09.24

**Published:** 14.09.24

**Abstract:** The history of our region testifies to the fact that Central Asia has been striving for socio-cultural and political integrity for centuries. For example, our ancestors lived side by side for centuries and fought together against invaders. Today, we need to create regional integrity in Central Asia, making good use of the experiences and opportunities of our ancestors, the countries of the region that have achieved high achievements. Such integrity is realized through regional cooperation, increases the prestige of the region and the countries located in it, and helps it to take a place among the leaders in the international arena.

### MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA O'ZBEKISTONNING MINTAQALAR TARAQQIYOTIDAGI O'RNI VA NUFUZI

*Shuxrat Abdulazizovich Xaydaraliev*

dotsent  
Namangan davlat universiteti  
Namangan, O'zbekiston

#### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, pragmatik siyosati, tashqi siyosat, mintaqaviy hamkorlik, ichki siyosat, demokratik jamiyat, Buyuk Ipak yo'li, savdo, iqtisodiy, investitsiyaviy, hamkorlik, rivojlantirish, taraqqiyot, xalqaro ekspertlar, barqarorlik, xavfsizlik, taraqqiyot, Harakatlar strategiyasi, do'stlik, qo'shnichilik, milliy manfaatlar.

**Annotatsiya:** Mintaqamizning tarixi Markaziy Osiyo asrlar davomida ijtimoiy-madaniy hamda siyosiy jihatdan yaxlitlikka intilib kelganligidan guvohlik beradi. Jumladan, ajdodlarimiz asrlar osha yonma-yon yashab, bosqinchilarga qarshi birgalikda kurashishgan. Bugun biz ajdodlarimiz, yuksak yutuqlarni qo'lga kiritgan mintaqqa davlatlari tajribalari va imkoniyatlaridan unumli

foydalangan holda, Markaziy Osiyoda mintaqaviy yaxlitlikni vujudga keltirishimiz zarur. Bunday yaxlitlik mintaqaviy hamkorlik orqali ro‘yobga chiqib, mintaqani va unda joylashgan davlatlarning obro‘-e’tiborini oshiradi va xalqaro maydonda yetakchilar qatoridan o‘rin olishiga ko‘maklashadi.

## РОЛЬ И ВЛИЯНИЕ УЗБЕКИСТАНА В РАЗВИТИИ РЕГИОНА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

*Шухрат Абдулазизович Хайдаралиев*

доцент

Наманганский государственный университет,  
Наманган, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Центральная Азия, pragmaticheskaya politika, vnevnaya politika, regionalnoe sotrudnichestvo, vnutrennaya politika, demokratischeskoe obshchestvo, Velikiy Shelkovyy put’, torgovlya, ekonomika, investitsii, sotrudничество, развитие, прогресс, международные эксперты, стабильность, безопасность, прогресс, стратегия действий, дружба, добрососедство, национальные интересы.

**Аннотация:** История нашего региона свидетельствует о том, что Центральная Азия на протяжении веков стремилась к целостности как в социокультурном, так и в политическом плане. В частности, наши предки веками жили бок о бок и вместе боролись с захватчиками. Сегодня нам необходимо создать региональную целостность в Центральной Азии, максимально используя опыт и возможности наших предков, государств региона, добившихся высоких достижений. Такая целостность достигается за счет регионального сотрудничества, которое повышает престиж региона и государств, находящихся в нем, и способствует его позиционированию среди лидеров на международной арене.

### KIRISH

Bizga ma’lumki, hamkorlik jarayonlari milliy manfaatlar va ularni qondirish bilan chambarchas holda kechadi. Birinchidan, davlatlar milliy manfaatdorlikdan kelib chiqib hamkorlik jarayoniga kirishadi. Ikkinchidan, mintaqaviy hamkorlik milliy manfaatlarni muvozanatga kelishi bilan boshlanib, uyg‘unlashuvi bilan rivojlanadi. Uchinchidan, mintaqaviy hamkorlikning asosi bo‘lgan mintaqaviy manfaatlar milliy manfaatlar zamirida shakllanadi. Shunday ekan hamkorlik jarayonlariga ishtirok etuvchi har bir subyektning manfaatlarini o‘rganish va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Yuqoridagilardan kelib chiqib, endi mintaqaviy hamkorlik jarayonlarida O‘zbekiston manfaatlari va ularni namoyon bo‘lishi haqida to‘xtalamiz.

### ASOSIY QISM

Avvalo, milliy manfaatlar haqida qisqacha so‘z yuritsak. Milliy manfaatlar tushunchasi

politologiyada ko‘plab bahs munozaralarga sabab bo‘ladigan masalalardan biridir. Uning shakllanishi, mansubligi, darajasiga qarab tadqiqotchilar turli yondashuvlarni ilgari suradi. Ayrim tadqiqotchilar milliy manfaatlarni o‘ta umumlashtirib barcha manfaatlarning majmuasi deydi. S.S.Mitroxin milliy manfaatlar o‘rniga “manfaatlar majmuasi” degan tushunchani qo‘llashni taklif etadi [12. –C.34-35.]. Bunday tushunchani shaxs, millat, davlat manfaatlari, mintaqa, insoniyat manfaatlarini umumlashtiruvchi tushuncha sifatida qo‘llash mumkin. Ammo milliy manfaatlar mintaqa yoki insoniyat manfaatlarini qamrab olmaydi. Milliy manfaatlarga nisbatan bunday yondashuv uni o‘ta mavhumlashtirib, egasizlik darajasiga olib keladi. Bir guruh olimlar milliy manfaatlar ma’lum bir millatga mansub ekanligini qayd etadi. Jumladan, professor S.Otamuratov va S.Otamuratov, “milliy manfaat – bu har bir millatning o‘z iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy ehtiyojlari, ularni ta’minalash uchun intilish shakli ekanligini ta’kidlaydi [13. —C.34-35.]. Yana bir taniqli olim A.Ochilidiyev “milliy manfaatlar ijtimoiy manfaatlarning turlicha ko‘rinishi bo‘lib, ular millat hayot sharoiti, milliy munosabatlar tizimidagi o‘rni bilan belgilanishini va taraqqiyotdagi obyektiv turmush ehtiyojlarini aks ettirishi” [15. – C. 57.] ni qayd etadi.

K.Axmedov “Milliy manfaatlar” kategoriyasiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishida milliy manfaatlar har bir millatning, yagona tarixiy-madaniy va siyosiy jamoa sifatida o‘zligini saqlab qolish, yanada keng qaror toptirish, milliy qadriyat va davlat suverenitetini himoya qilish, jamiyat va shaxsning mustahkam rivojini siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy jihatdan ta’minalash borasidagi ongli maqsad va tadbirlardan iboratdir, degan yondashuvni ilgari suradi. Yuqorida tilga olingan tadqiqotlarda olimlar mavzulari mohiyatidan kelib chiqib yondashganliklarini inobatga olsak, ularning fikrlariga qo‘shilish mumkin. Ammo milliy manfaatlar faqat millat manfaatlaridan iborat emas.

Ayrim tadqiqotlarda milliy manfaatlar davlat manfaatlari ekanligi ilgari suriladi. Rossiyalik K.Gadjiyev “milliy manfaat – davlatni anglangan, izohlangan ehtiyoji uning mavjudligi va faoliyati asosi ekanligini qayd etadi [7. – C.313.]. Ingliz tadqiqotchisi E.Bettler “milliy manfaat – siyosiy tushuncha bo‘lib, davlatning obyektiv anglangan ehtiyojlarini aks ettiradi”, deb yozadi [6. – C.51-53.]. Ko‘rinib turibdiki, bu yondashuvlarda asosiy urg‘u davlatga qaratilganligi, aniqrog‘i milliy manfaatlar asosan davlat manfaatlari ekanligiga urg‘u beriladi. Agar masalaga shunday yondashsak, milliy manfaatlarning davlat manfaatlari tushunchasidan farqi qolmaydi. Milliy manfaatlar davlat manfaatlari bilan birga shaxs, millat yoki jamiyat manfaatlarini ham qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan, E.G.Pozdnyakov milliy va davlat manfaatlari tushunchasi o‘zaro bog‘liq bo‘lib, milliy manfaatlar davlatdan ajralmas ekanligini qayd etib, “milliy-davlat manfaatlari” degan tushunchani qo‘llash maqsadga muvofiq deb biladi [17. – C.60.]. Ularni o‘z o‘rnida qo‘llash maqsadida millatga tegishli manfaatlar yig‘indisini millat yoki millatlar manfaatlari, davlatga tegishli manfaatlar yig‘indisini davlat manfaatlari va ularni yig‘indisiga

nisbatan milliy manfaatlar tushunchasini ishlatish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. O‘z navbatida milliy manfaatlar tushunchasi bilan muqobil ravishda ma’lum bir mamlakat nomi bilan ifodalangan manfaatlar tushunchasini qo’llash ham mumkin. Jumladan, “O‘zbekistonning milliy manfaatlari” bilan birga “O‘zbekiston manfaatlari” tushunchasini qo’llasa bo‘ladi. Bu avvalo, yuqorida qayd etilgan milliy manfaatlarga nisbatan turli xil yondashuvlarni oydinlashtirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi mulohazalarimizdan kelib chiqib milliy manfaatlar bu shaxs, millat, jamiyat va davlat manfaatlari yig‘indisi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik konsepsiyasida milliy manfaatlarga shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini o‘z ichiga olishi qayd etilgan [18].

Milliy manfaatlarni qondirish muhim masala bo‘lib, bugungi kunda unga ma’rifiy yondashuv va boshqalarning manfaatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etmoqda. E.Pozdnyakov ta’kidlaganidek, milliy manfaatlarni tadbiq etish uslub va vositalarining ixchamligi va egiluvchanligi bugungi dunyoning o‘ziga xos xususiyatidir [16. – C.37.]. Buni davlatlarning mavjud muammolarni hal qilishda va milliy manfaatlarni himoya qilishda bog‘liqligini kuchayishi bilan izohlash mumkin. Milliy manfaatlar, ularning mohiyati, shakllanishi murakkab masala bo‘lib, ular haqida bataysil to‘xtalish mavzuimiz doirasiga kirmaydi. Bu masalaga qisqacha to‘xtaladigan bo‘lsak, subyektning har bir makonda manfaatlari, uni qondirishning o‘ziga xos uslub va vositalari bo‘ladi. Bularni samarali amalga oshirish uchun, avvalo, tizimga solish yuqori natija beradi. Ya’ni, milliy manfaatlarga tizimli yondashuv uni amalga oshirishni osonlashtiradi. Tizimli yondashuvda siyosiy realizmning metodologik tamoyillaridan biri bo‘lgan obyektiv yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonning mintaqadagi milliy manfaatlar tizimini iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy sohadagi manfaatlar doirasida tahlil qilish zarur deb hisoblaymiz. Negaki, birinchidan, milliy manfaatlar iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va ijtimoiy taraqqiyot kabi obyektiv omillar asosida shakllanadi. Ikkinchidan, Falsafa ensiklopedik lug‘atida tizimni (sisteman) o‘ziga xosligi to‘g‘ri qayd etilib, “har qanday sistema o‘rab turgan muhit bilan birga mavjud, bu esa tartibga solingan sistema unsurlari yaxlit to‘plamining muhit bilan o‘zaro ta’sirini namoyon qiladi” [2. – Б. 244.], deb yozilgan. Shundan kelib chiqib, ularni kengroq yoritishga o‘tsak.

Iqtisodiy muhitdagi manfaatlar asosan iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashga qaratiladi. O‘zbekistonning mintaqqa iqtisodiy muhitidagi manfaatlariga dunyo bozoriga yo‘l ochish, arzon ishlab chiqarish kuchlari va vositalariga ega bo‘lish, mintaqqa imkoniyatidan foydalaniib, ishlab chiqarishni arzon, sifatli xom ashyo bilan ta’minlash, ishlab chiqilgan mahsulotni mintaqaviy bozorga olib chiqish, mintaqqa davlatlari bilan savdo-sotiqni rivojlantirish, invistetsiyalar jalb qilishda qo‘shti davlatlar bilan hamkorlik qilish, iqtisodiy samara beradigan mintaqaviy transport-

kommunikatsiya tizimini rivojlantirish, mavjud energiya resurslarini eksport qilishda qo'shni davlatlar bilan hamkorlik qilish, mamlakatimiz iqtisodiyotini mintaqqa iqtisodiyoti, pirovardida global iqtisodiyot bilan integratsiyasiga erishish, turizmni rivojlanishiga xizmat qiladigan mintaqaviy infrastrukturani rivojlantirishni kiritish mumkin. Iqtisodiy muhitdagi manfaatlarni qondirish iqtisodiy jarayonlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Markaziy Osiyo iqtisodiy muhitida ma'lum bir raqobat va ziddiyatlar mavjudligi ham ko'zga tashlanadi. Ayrim olimlarimiz jumladan, professor B.Iminov raqobat – iqtisodiy taraqqiyot manbai ekanligini qayd etadi [8. – Б. 44.].

Ijtimoiy nuqtai nazardan ham raqobat taraqqiyot manbaidir. Lekin mavzumiz mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, hamkorlik uchun raqobat va ziddiyat emas, mushtaraklik va to'ldiruvchanlik muhimroq deb hisoblaymiz. Aynan iqtisodiy muhitda manfaatlarning mushtaraklashib borishi hamkorlikni rivojlanadiradi. Bundan tashqari bu muhitdagi ziddiyat va raqobat milliy manfaatlarda ham o'z aksini topadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolar to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o'tolmaymiz. BMT Bosh kotibining "suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o'zaro chambarchas bog'liq", degan pozitsiyasini to'la qo'llab-quvvatlaymiz. Ishonchim komil, suv muammosini hal qilishning mintaqqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo'li yo'q[1]. Endi navbatdagi masala – siyosiy muhitdagi manfaatdorlik haqida to'xtalsak. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, siyosiy manfaatlar siyosiy munosabatlarda va siyosiy jarayonlarda namoyon bo'ladi. Professor B.Iminov siyosiy munosabatlar va siyosiy jarayonlar zamirida siyosiy manfaatlar yotadi [8. – Б 91], deydi. Mintaqadagi siyosiy munosabatlarni va siyosiy jarayonlarni tahlil qilib O'zbekistonni mintaqqa siyosiy muhitidagi manfaatlari: xavfsizlik, barqarorlikni ta'minlash, qo'shnilar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, xalqaro maydonda milliy manfaatlarni himoya qilishda mintaqqa davlatlari bilan hamkorlik qilish, millatlararo munosabatlarni takomillashtirish, mintaqaviy institatlarda faol ishtirok etish, siyosiy hokimiyat legitimligini ta'minlashdir. O'z navbatida siyosiy muhitdagi asosiy manfaatlardan biri – O'zbekiston hududiy yaxlitligini saqlab qolishga qaratilgan siyosat hisoblanadi.

Obyektiv ehtiyojlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan milliy manfaatlardan biri xavfsizlik haqida to'xtaladigan bo'lsak, bundan ko'proq mintaqqa manfaatdor. Bu borada tashqi davlatlarning aralashuvi mintaqqa davlatlari manfaatlariga mos tushmaydi. Qolaversa, bunday faollashuv manfaatlar to'qnashuviga olib keladi.

Markaziy Osiyo geosiyosiy maydonida o'ziga xos transformatsiya jarayonlari kechmoqda. Bu mintaqadagi holatning global miqyosdagi xavfsizlik tizimiga ta'sir qila boshlashiga olib kelmoqda.AQSh, Rossiya, Xitoy, Yevropa Ittifoqi, Eron, Turkiya, Hindiston va boshqa davlatlar

bu yerda o‘zlarining geosiyosiy manfaatlarini qondirishga intilmoqdalar. Bir tomondan aynan shu hatti-harakat bu hududda manfaatlarni turli yo‘llar, vositalar bilan qondirishga intilishni kuchayishiga, manfaatlar to‘qnashuviga olib kelmoqda. Ikkinci tomondan, mintaqada geosiyosiy mavhumlik holatini saqlanib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Birgina Afg‘oniston muammosini oladigan bo‘lsak, bu yerdagi beqarorlik umumjahon xavfsizlik tizimiga real tahdid sola boshladiki, butun hamjamiyat mamlakatda tinchlik o‘rnatishga, barqarorlikni tiklashga harakat qilmoqda. Ayni paytda Markaziy Osiyoda qudratli davlatlarning manfaatlari kesishmoqda, beqarorlik va qarama-qarshilik o‘choqlariga tutash bo‘lgan ushbu mintaqa yaqin va uzoq xorijda ro‘y berayotgan barcha salbiy jarayonlar ta’sirini his etmoqda [2].

Boshqa biror bir mintaqada bunchalik ko‘p yoki yetakchi davlatlarning manfaatlari to‘qnashmaydi. Bunday holatning salbiy jihatni shundan iboratki, mintaqada geosiyosiy jarayonlarda taranglik, mavhumlik saqlanib turadi. Ya’ni, mintaqada manfaatlari to‘qnashgandavlatlar har birining hatti-harakatidan kelib chiqib adekvat javob qaytarishga intiladilar. Masalan, Rossiya mintaqada o‘zining harbiy bazalarini joylashtirgandan so‘ng, AQSh ham shunga intildi. Oqibatda, bir davlat hududida ikki yirik davlat harbiy bazalari vujudga keldi. Yoki Xitoy bilan hamkorlikda 2009 yilda yangi gaz quvurlarini ishga tushirilishi to‘g‘risida kelishuv imzolanib, bu o‘zining amaliy samarasini berishi bilan Rossiya Xitoyga gaz yetkazib berish taklifi bilan chiqib, Uraldan Xitoygacha gaz quvurlari o‘tkazish loyihasini taqdim etdi. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Ana shunday geosiyosiy mavhumlik va murakkablik sharoitida qanday siyosat yuritish kerak? Kim bilan va qay darajada hamkorlik qilish kerak? Umuman, ana shunday murakkab geosiyosiy jarayonlarda milliy manfaatlarni qanday qondirsa bo‘ladi? Bunday jarayonlarda mintaqaviy birdamlikni qanday ta’minalash mumkin? kabi masalalarni yechimi kundan kunga dolzarblik kasb etib bormoqda. Afsuski, bu dolzarb masalalarning nazariy yechimlari ham yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bugungi tashqi siyosatimiz strategiyasini belgilashda mintaqadagi geosiyosiy jarayonlarda milliy manfaatlarimizni qondirishda uning nazariy yechimini topish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilarni hisobga olib, endi O‘zbekistonning mintaqadagi asosiy geosiyosiy manfaatlari va ularni ro‘yogga chiqarish, bu boradagi muammolar yechimi haqida to‘xtalishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Zero, bu masala ham mintaqadagi hamkorlik jarayonlariga salmoqli ta’sir etadi.

Markaziy Osiyo O‘zbekiston uchun asosiy geostrategik ahamiyat kasb etadi. Bu makonda o‘z manfaatlarini qondirish davlatimizning milliy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan asosiy strategiyasini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan ham O‘zbekistonning mintaqadagi manfaatlarini o‘rganish, tahlil qilish muhim ahamiyat ega. Har bir davlat o‘z milliy manfaatlari doirasini belgilar ekan, joylashgan mintaqasining geosiyosiy omillarini hisobga oladi. Bunda asosan tadqiq

qilinayotgan mintaqaning geosiyosiy o‘ziga xosligi va geostrategik ahamiyati markaziy o‘rinda turadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonning mintaqadagi geosiyosiy manfaatlarini uch jihatdan o‘rganib, tahlil qilmoqchimiz. Ular quyidagilar:

Birinchidan, mintaqada transport-kommunikatsiya tizimini takomillashtirish;

Ikkinchidan, Markaziy Osiyo bozorida yetakchi mavqega ega bo‘lish va mintaqadagi mavjud tabiiy boyliklarni (asosan neft va gazni) dunyo bozoriga olib chiqish;

Uchinchidan, Afg‘onistonda qayta tiklash va barqarorlikni o‘rnatishda ishtirok etish orqali mintaqqa xavfsizligini ta’minlash.

Bugungi kunda transport kommunikatsiya tizimi nafaqat iqtisodiy balki geosiyosiy ahamiyat kasb etib bormoqdaki, bu ayniqsa Sharqni G‘arb bilan birlashtiruvchi Markaziy Osiyo uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘tgan 26 yil mobaynida mintaqqa davlatlari bu sohani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdi. Aynan bu borada amalga oshirilgan ishlar haqida biz oldingi paragraflarda to‘xtalgan edik. Endi biz asosiy e’tiborni istiqboldagi strategik ahamiyatga molik loyihalar va ularda O‘zbekiston manfaatlarini ro‘yobga chiqarish masalasiga to‘xtalamiz.

Birinchi vazifa transport yo‘laklarini samarali diversifikatsiya qilish muammosini hal qilish. Buning uchun, avvalo, iqtisodiy samaradorlik masalasi birinchi o‘ringa qo‘yilishi va raqobatbardosh transport yo‘laklarini ochish orqali xalqaro yuk tashuvchilar e’tiborini jalb qilib, tranzit yuk tashish miqdorini oshirish lozim.

Ikkinci vazifa mintaqaning transport kommunikatsiyasi va mintaqaviy iqtisodni hamohanglikdagi rivojlanish tizimini yaratishdan iborat.

Bunda mintaqqa manfaatlariga azaldan xizmat qilib kelgan “Buyuk ipak yo‘li”ni qayta tiklash muhim ahamiyat kasb etadi. (Qarang. 2-ilova) Masalaning murakkabligi shundaki, avvalo bu yo‘l hozirda mavjud dengiz yo‘llari va quruqlikdagi muqobil transport koridorlari bilan raqobatlasha olishi kerak.

Bu tizimni rivojlantirish jahon yuk tashish tizimida mintaqaning munosib o‘rin olish imkoniyatini beradi, bu esa yangi ish o‘rinlari va daromad manbalarini yaratadi. Ekspertlarning fikricha, Markaziy Osiyoda yuk tashishni oshirishda ikki yo‘nalish istiqbolli.

1. Shimoliy yo‘nalish – Sharqni G‘arb bilan bog‘laydi. Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoyni mintaqqa yo‘li orqali Rossiya yoki Kavkaz orqali Yevropa bilan bog‘lashga imkon tug‘diradi.

2. Janubiy yo‘nalish – Sharqni Janub bilan bog‘laydi. Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoyni mintaqqa yo‘li orqali Eron, Fors ko‘rfazi, Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo (Hindiston va Pokiston) bog‘lashi mumkin [11. – C.43].

Demak, ko‘rinib turibdiki, “Buyuk ipak yo‘li”ni bugungi kun talablaridan kelib chiqib qayta tiklash zaruriyatni sezilmoqda. Ya’ni Sharqni G‘arb bilan Sharqni Janub bilan bog‘laydigan

transport tizimini shakllantirish zaruriyati mavjud. Lekin uni amalga oshirishda yetarli iqtisodiy imkoniyatga ega bo‘lgan Xitoy, Rossiya, AQSh, Yaponiya, Hindiston, Yevropa Ittifoqi kabilarni manfaatlarini uyg‘unlashtirish eng katta muammo hisoblanadi. Masalan, AQSh hukumati yoki ilmiy doirasida ilgari surilayotgan yondashuvlarda mintaqamizni asosan janub bilan bog‘lashga e’tibor qaratilib, Xitoy chetda qoldiriladi. Xitoy esa mintaqa orqali g‘arb davlatlariga yoki Fors ko‘rfaziga chiqishni ilgari surmoqda. Rossiya esa o‘z hududi orqali mintaqani g‘arb bilan bog‘lashningtarafdori[3].

“Buyuk ipak yo‘li”da transport-kommunikatsiya tizimini shakllantirish barobarida quvur yo‘llarini o‘tkazishni ham ko‘zda tutadi. Ma’lumki, Markaziy Osiyo bilan Xitoyni bog‘laydigan quvur yo‘llari qurilishi boshlangan va uning dastlabki tarmog‘i ishga ham tushirilgan. Shu bilan birga bu boradagi faoliyatni davom ettirib Janubiy Osiyoga quvur yo‘llari o‘tkazish professor S. Safoyev ta’kidlaganidek, global, geosiyosiy, geoiqtisodiy ahamiyatga ega [19. – Б. 91]. Nazarimizda, uni quyidagi yo‘nalishda amalga oshirish muhim.

1. Qozog‘iston – O‘zbekiston – Turkmaniston – Afg‘oniston – Pokiston – Hindiston. Bundan O‘zbekiston manfaatdorligi yo‘nalishlarda mamlakatimiz markaziy o‘rinda turadi.

Ikkinchidan, mamlakatimizdagi gaz zahiralari va undan ishlab chiqilgan mahsulotlarni sotishning imkonи tug‘iladi. Quvur yo‘llar O‘zbekiston hududidan o‘tib, gazni eksport qilishda manfaatli muqobil xaridor bo‘lishi imkonini beradi. Bundan tashqari tranzit uchun ham respublikamiz tegishli ulushni oladi. Shuningdek Rossiya va Xitoya chiqadigan muqobil yo‘l shakllanadi. Bu mintaqani Rossiya yoki Xitoya bog‘lanib qolishining oldini oladi. S.f.d Ch.Ko‘charov ta’kidlaganidek: “Shu tariqa Markaziy Osiyo global mintaqa – Hindiston subkontinentining geosiyosiy rivojlanishida burilish yasashi mumkin”[10. –Б. 114].

Uchinchidan, bunday loyihalardan mintaqadagi davlatlar manfaatdor bo‘lishi esa o‘zaro hamjihatlikka, davlatlar o‘rtasidagi do‘stlik, mintaqaviy manfaatdorlikni rivojlanishiga olib keladi.

Shu bilan birga, Yevropani Xitoy bilan bog‘laydigan Sharq-G‘arb transport koridori loyihasi mavjud. U asosan Qozog‘iston orqali o‘tib, O‘zbekistonnni chetlab o‘tadi. Biz shu yo‘nalishni O‘zbekiston orqali o‘tishiga ham harakat qilishimiz lozim. Bu borada biz uchun Xitoy – Qиргизистон – О‘zbekiston – Qozog‘iston – Rossiya – Yevropa transport koridori muhim. Hozirgi kunda Xitoy Qиргизистон O‘zbekiston temir yo‘lini barpo etish borasida amaliy ishlar qilinmoqda. O‘zbekiston tomonidan qurilishi yakunlangan Angren – Pop yo‘nalishi yuqoridagi temir yo‘l tizimini bir bo‘lagi hisoblanadi. Bu yo‘nalishning afzalligi O‘zbekiston Qozog‘iston Rossiya Yevropa yo‘nalishida transport kommunikatsiya tizimi ancha rivojlangan. Xalqaro standartlarga javob beradigan temir yo‘l va transport yo‘lagi mavjud. Shu boisdan bu yo‘nalish kam xarajatli hisoblanadi. Umuman S. Safoyev yozganidek “faol tovar ayriboshlash, tajriba, g‘oyalar, fan va

texnika yutuqlarini almashishga intilishgina Markaziy Osiyo xalqlarining jadal rivojlanishini ta'minlagan”[19. –Б. 91]. Bu tamoyil (qonuniyat) bugun ham o‘z kuchini yo‘qotmagan.

Markaziy Osiyo tarixini chuqur o‘rgangan akademik V.V. Bartold mintaqasi kelajagini jahon savdosida u qanday mavqega ega bo‘lishi bilan belgilanishini qayd etadi[5. – С. 166]

Bugungi kunda Markaziy Osiyoning jahon savdosidagi mavqeini yuqori baholab bo‘lmaydi. Qolaversa, O‘zbekiston mintaqaning jahon savdosida o‘z o‘rniga ega bo‘lishidan manfaatdor. Buning uchun eng qulay transport – temir yo‘l va havo transporti hisoblanadi. Navoiy viloyatida erkin industrial zonani shakllantirilishi ham bu boradagi sa’y-harakatlardan biridir. Lekin bu loyiha Janubiy Koreya bilan hamkorlik asosiga qurilgan. Xuddi shunday hududni Xitoy bilan birga Farg‘ona vodiysida tashkil qilish mumkin. Nazarimizda bu uchun geografik jihatdan eng qulay Farg‘ona viloyatining Qo‘qon hududi to‘g‘ri keladi. Bu, birinchidan, jahon savdosida yuksak mavqega ega bo‘lgan Xitoy tovarlarini aviatsiya yoki temir yo‘l orqali janubga, g‘arbga yetkazishda foydalanish imkonini bersa, ikkinchidan, xizmat ko‘rsatish orqali ko‘plab ishchi o‘rinlarini yaratish imkoniyatini yaratadi. Shunday bozorni Farg‘ona vodiysida joylashtirishdan maqsad geografik yaqinlik va aholi soni ko‘pligi bilan asoslanadi. Bunda geografik yaqinlik tovarni transport yoki temir yo‘l orqali tashish imkonini bersa, aholi zichligi yetarli inson resurslari mavjudligidan dalolat beradi.

O‘zbekistoni Markaziy Osiyo ijtimoiy muhitidagi manfaatlari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak. Sog‘liqni saqlash, giyohvandlikka qarshi kurashda, aholini ish bilan ta’minalashda hamkorlikni sanab o‘tish mumkin.

Ijtimoiy muhit haqida to‘xtalsak. U insonning shakllanishi, yashashi va ishlashi uchun uni o‘rab turgan moddiy, ma’naviy va ijtimoiy shart-sharoitlardir. Ijtimoiy muhit mikro va makro darajaga bo‘linadi[20. – Б. 124]. Globallashuv jarayonlarida makro darajadagi ijtimoiy muhit ahamiyatlidir. Chegaralarning “yuvilib ketishi” natijasida bir davlat ijtimoiy muhitidagi muammo tezlik bilan butun mintaqaga yoki umumbashariyatga ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy muhit inson tarbiyasi va istiqbolida muhim ahamiyatga ega. Makro darajadagi ijtimoiy muhitni faqat bir jamiyat yoki davlat sa’y-harakatlari bilan yaxshilash qiyin kechadi. Ya’ni, bunda mintaqasi subyektlari faol ishtiroy etishi lozim. Ijtimoiy muhitidagi asosiy vazifa – hamkorlik orqali ishchi o‘rlari yaratish va mamlakatimizda ishsizlikni qisqartirishdir. Bu borada mintaqada ulkan imkoniyatlar mavjud. Biz oldingi paragraflarda to‘xtalanimizdek, yuksak dehqonchilik madaniyatiga ega yurtdoshlarimiz Qozog‘iston hududidan yerlarni ijaraga olib, dehqonchilik qilishlari yoki tadbirkorlik va xususiy biznesni rivojlantirishlari mumkin.

Ma’lumki, mintaqamiz ichki bozorida Xitoya ishlab chiqarilgan mahsulotlar salmoqli o‘rinni egallaydi. Bu Xitoy iqtisodiyoti, ishlab chiqarishi uchun muhim omildir. Kelgisida yangi bozorlarni ochilishi iqtisodiyot uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi. Demoqchimizki, biz mintaqasi

davlatlari bilan hamkorlikda Afg'oniston bozorini egallashimiz va Rossiyadagi oziq ovqat bozorida mustahkam o'mashishimiz maqsadga muvofiq. Bu mintaqa aholisi uchun yangi ishchi o'rinalarini ochilishi imkonini beradi. Bu strategik manfaatni qondirishda mintaqqa davlatlari raqobatlashmasliklari, aksincha hamkorlik qilishlari muhim. Shundagina bu kurashda yirik iqtisodiy imkoniyatlarga ega Xitoy, Eronkabi davlatlari bilan teng raqobatlasha olamiz, geografik ustinlikdan foydalanib ularga nisbatan ko'proq manfaatdorlikka erishishimiz mumkin. Nazarimizda bu borada O'zbekiston tashabbusni qo'lga olishi birinchi Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan Afg'onistonda tinchlikni o'rnatish bo'yicha tashabbusini amalda tadbiq etish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Sog'lijni saqlash masalasi bugungi kunda tobora umummintaqaviy ahamiyat kasb etib bormoqda. O'zbekiston mintaqada turli yuqumli kasallikkarni tarqalmasligidan manfaatdor. Giyohvandlik umumbashariy muammo kasb etadi. Mintaqamiz giyohvand moddalar yetkazib beradigan Afg'oniston bilan chegaradosh. Shunday ekan giyohvandlikni avj olish ehtimoli bizda yuqori hisoblanadi. Giyohvandlik mamlakatning ijtimoiy xavfsizligiga nisbatan real tahididlardan hisoblanadi. Bunday ofatni oldini olishdan va bu borada hamkorlik qilishdan O'zbekiston manfaatdor.

Mintaqa ijtimoiy muhitida O'zbekiston manfaatlari qatoriga makrodarajadagi ijtimoiy muhitni uyg'unlashib (takomillashib) borishidan, mintaqqa imkoniyatlaridan foydalanib yurtimizda ishsizlikni kamaytirish, mintaqqa xalqlarini, jumladan o'zbekistonliklarni butun mintaqaga erkin faoliyat ko'rsata olishlari uchun tegishli huquqiy asoslarni kiritish maqsadga muvofiq. Chunki mintaqada yashovchi xalqlar, beshta davlat fuqarolari bir hududdan ikkinchi hududga o'tishlariga to'siqlar bo'lmasa, bu tadbirkorlikni rivojlanishi uchun ham, millatlararo munosabatlarni takomillashishi uchun ham o'zaro ishonchni kuchaytiradi. To'g'ri buni amaliyotga tadbiq etish ma'lum iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy yoki xavfsizlik bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Lekin uning samarasi zararidan ko'ra bir necha bor katta bo'lishi aniq.

## XULOSA

Umuman insoniyat o'tmishi va bugungi kuniga chuqur nazar tashlaydigan bo'lsak, uning ma'naviyati taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etganligiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, globallashuv sharoitida ma'naviyatning o'rni, zaruriyati yanada oshib boradi. Aniqrog'i, yuksak ma'naviyatgina globallashuvning salbiy oqibatlarini bartaraf etish kuchiga ega. Bunday vaziyatda ulkan ma'naviy merosga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari zimmasiga ko'proq ma'suliyat yuklatiladi. Ma'lumki, ma'naviy meros ma'naviyat poydevori, ma'naviy tarbiyaning asosi va inson ma'naviy kamolotining o'zagidir. Shunday ekan, bu borada o'zaro hamkorlik qilishdan, globallashuvning salbiy oqibatlarini bartaraf etishda birgalikda ma'rifiy omilni shakllantirishdan O'zbekiston manfaatdor hisoblanadi. Zero, birinchi Prezidentimiz olg'a surgan "Yuksak

ma’naviyat yengilmas kuch” konsepsiysi O‘zbekistonda o‘z samarasini bera boshladi. Galdagi vazifa bu boradagi O‘zbekiston tajribasini butun mintaqaga miqyosida joriy qilishga erishish deb o‘ylaymiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. <http://president.uz/uz/lists/view/1063>.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Самарқанд шахрида ўтган “Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик” мавзусидаги халқаро конференцияда сўзлаган нутқи. <http://www.prezident.uz/uz/lists/view/1227>.
3. World Bank, «Connecting to Compete 2013. Trade Logistics in the Global Economy. The Logistics Performance Index and Its Indicators» (Washington DC:World Bank, 2013).
4. Ахмедов К.М. “Миллий манфаатлар” категорияси ва унинг халқаро тизимлар тараққиётида акс этиши. Сиёсий фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. –Т.: 2001. 42-43 бетлар.
5. Бартольд В.В. История Туркестана. – Москва.: Издательство Восточной литературы. 1913. –С.-166.
6. Бэттлер Э. Национальные интересы, национальная и международная безопасность// Полис,2012 №4. –С.51-53.
7. Гаджиев К.С. Геополитическое горизонты России (контуры нового миропорядка) – М.: Экономика.,2007. –С.313.
8. Иминов Б.К. Манфаатлар – сиёсат ва мафкура манбаи. – Т.: “Минхож” 2002 й., -Б.- 44.
9. Иминов Б.К. Манфаатлар – сиёсат ва мафкура манбаи. – Т.: “Минхож” 2002 й., -Б.- 91.
10. Кўчаров Ч. Марказий Осиёнинг минтақавий интеграцион жараёни муаммолари. – Тошкент.: Фан. 2008. – 114 б.
11. Махмудов Р. «Экономические предпосылки для роста грузоперевозок через регион Центральной Азии», Uzbekistan Central Asia// V-2007. - C.43..
12. Митрохин С.С. Национальный интерес как теоретическая проблема// Полис.2007.№1. –С.34-35.
13. Отамуратов С., Отамуратов С.С. Ўзбекистонда маънавий-рухий тикланиш. – Т.:“Янги аср авлоди”.2003.58-б.
14. Отамуратов С.С. Глобаллашув миллий-маънавий хавфсизлик. (сиёсий-фалсафий таҳлил) –Т.: “Ўзбекистон” Иккинчи нашр 2015 й., 185-б.

15. Очилдиев А.С. Диалектика национального самосознания и национальной культуры. - Т.: 1997. -С. 57.
16. Поздняков Э. Национальное и интернациональное во внешней политике. Международная жизнь 1992 №4. С.37.
17. Поздняков Э.Г.Философия политики. Ч.1. - М.: 1994.-С.60.
18. Республики Узбекистан от 29.08.1997 г. № 447-1//Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан. – Т.: 1997. №11-12. ст. 296.
19. Сафоев С. Марказий Осиё геосиёсати. – Т.: ЖИДУ. 2005. 91-б.
20. Фалсафа энциклопедик лугат. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”.2010.-Б.-244.
21. Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. –Т.: “Университет” нашриёти. 1998. –Б. 3.